



UDC: 1. 128.

Feruz RAHMONOVA,
Farg‘ona davlat universiteti tadqiqotchisi
E-mail: alfargoniy.uz@gmail.com

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti B.Mirzaraximov tahriri asosida

GENDER TENGLIKNI TA‘MINLASH – XOTIN-QIZLARNI TAZYIQ VA ZO‘RAVONLIKLARDAN HIMOYA QILISHNING IJTIMOY-HUQUQIY MEKNIZMI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada gender tenglik, gender madaniyat, gender tazyiq kabi hozirda dolzarb hisoblangan masalalar tahlil etilgan. Gender tenglikni ta‘minlash, erkaklar va xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini birday kafolatlash vazifalari ochib berilgan. “Gender” atamasi, u bilan bog‘liq “gender munosabatlar”, “gender tenglik”, “gender madaniyat”, “gender taraqqiyot”, “gender sotsiologiya”, “gender psixologiya” kabi iboralar keng tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: “Gender tenglik”, “gender madaniyat”, “gender taraqqiyot”, “gender sotsiologiya”, “gender psixologiya”, “gender paritet”, “gender rollar”, feminizm.

ОБЕСПЕЧЕНИЕ ГЕНДЕРНОГО РАВЕНСТВА – КАК СОЦИАЛЬНО-ПРАВОВОЙ МЕХАНИЗМ ЗАЩИТЫ ЖЕНЩИН ОТ ПРИСТАВОК И НАСИЛИЯ

Аннотация

В данной статье анализируются такие актуальные проблемы, как гендерное равенство, гендерная культура, гендерное угнетение. Раскрыты задачи обеспечения гендерного равенства, гарантирования прав и свобод мужчин и женщин одновременно. Термин «гендер» и связанные с ним фразы, такие как «гендерные отношения», «гендерное равенство», «гендерная культура», «гендерное развитие», «гендерная социология», «гендерная психология», подверглись широкому анализу.

Ключевые слова: «Гендерное равенство», «гендерная культура», «гендерное развитие», «гендерная социология», «гендерная психология», «гендерный паритет», «гендерные роли», феминизм.

ENSURING GENDER EQUALITY - AS A SOCIO-LEGAL MECHANISM OF PROTECTING WOMEN FROM HARASSMENT AND VIOLENCE

Annotation

This article analyzes current issues such as gender equality, gender culture, gender oppression. The tasks of ensuring gender equality, guaranteeing the rights and freedoms of men and women at the same time have been revealed. The term "gender" and related phrases such as "gender relations", "gender equality", "gender culture", "gender development", "gender sociology", "gender psychology" have been widely analyzed.

Key words: "Gender equality", "gender culture", "gender development", "gender sociology", "gender psychology", "gender parity", "gender roles", feminism.

Kirish. Bugungi kunda yurtimizda gender tenglikni ta‘minlash, erkaklar va xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini birday kafolatlash vazifalari dolzarblik kasb etmoqda. Erkaklar bilan xotin-qizlar o‘rtasidagi to‘liq va haqiqiy tenglik qonun ustuvorligiga asoslangan adolatli va demokratik jamiyatning g‘oyat muhim elementi hisoblanadi. Jamiyatning yaxlit rivojlanishi va uning barcha a‘zolari farovonligining oshirilishi erkaklar bilan xotin-qizlarning to‘liq va teng ishtirok etishi uchun baravar imkoniyatlarni taqozo etadi. Ayollar tomonidan inson huquqlarini to‘la va teng tasarruf etishlari mamlakatda tinchlikni mustahkamlash va demokratiya uchun eng muhim ahamiyatga egadir. Chunki, bizning mamlakatimizda xotin-qizlarning soni xalqimizning 50 foizidan ham ortig‘ini tashkil etadi. Shuning uchun ham ularning intellektual-ma‘naviy taraqqiyoti, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy faolligi nafaqat mamlakatimiz rivoji uchun, balki oilalarimiz mustahkamligi uchun ham juda muhimdir.

Materiallar va metodlar. Gender tushunchasi jins bilan bog‘liq tushuncha bo‘lib, jins – bu erkak va ayol orasidagi jismoniy farqlarga aloqador bo‘lgan anatomik-fiziologik xarakteristikadir. Har bir individ o‘zida maskulinlik va feminlik xislatlariga u yoki bu darajada ega bo‘lishi mumkin. Shuning uchun tabiat tomonidan ikki jins belgilanishiga qaramasdan, madaniyat, tarixiy davr, jamiyattagi o‘zgarishlarga bog‘liq ravishda gender tiplari variantlari, genderli xilma-xillik ko‘proq kuzatiladi.

Bugungi kunda “gender” atamasi, u bilan bog‘liq “gender munosabatlar”, “gender tenglik”, “gender madaniyat”, “gender

taraqqiyot”, “gender sotsiologiya”, “gender psixologiya” kabi iboralar ko‘p ishlatilmoqda. Keyingi yigirma yilni “gender izlanishlari davri” deb atash mumkin. Ammo bu umumlashtirishni, analiz va sintezni ham taqozo etmoqda. Gender munosabatlarini sun‘iy tarzda chuqurlashtirish, gender tadqiqotlarini boyitsa ham, taraqqiyotga xizmat qilmaydi, balki, aksincha, jinslar stratifikatsiyasini kuchaytiradi. Shuning uchun gender tadqiqotlari mudom jinslararo aloqalarni mustahkamlash maqsadidan kelib chiqishi lozim. Shuning uchun ham mazkur tadqiqot ishi jamiyatimizning yangi rivojlanish sharoitida gender tenglik masalalarining namoyon bo‘lishi va istiqboldagi vazifalarning sotsiologik tadqiq etishdan iborat.

Muhokama va natijalar. Ilgari gender tenglik tushunchasi mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy, sotsial-iqtisodiy hayotida deyarli oshkora tilga olinmasdi. Shuning uchun ham, gender tenglik deganda odamlarimiz ongida noto‘g‘ri tushunchalar shakllanib qoldi. Go‘yoki, gender tenglik atamasi xotin-qizlarning erkaklardan ustun bo‘lishi, ularni mensimaslik, erkaklarga o‘z gapini o‘tkazish, degan ma‘nolarni anglatadi, deya qabul qilindi. Vaholanki, gender tenglik teng imkoniyatlarga ega bo‘lishdir. Ya‘ni bilim olish, kasb tanlash, lavozimga ko‘tarilishda erkaklar bilan ayollarga bir xil imkoniyatlar yaratilishi – gender tenglik tushunchasining mohiyatini anglatadi. Shu boisdan ham mazkur masalada oydinlik bo‘lishi va tadqiqot natijalarini anglashda aniqlikka erishish uchun dissertatsiyada ko‘p qayd etiluvchi quyidagi atamalarga o‘z izohimizni keltiramiz:

Gender tenglikni – ayollar va erkaklarning iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishda o‘z huquqlaridan

foydalanishlari uchun teng imkoniyatlar deyish mumkin. Gender bo'yicha ishlarni taqsimlash– iqtisodiyotda erkaklar va ayollarning taqsimlanmaganligidir, shuning uchun iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida erkaklar yoki ayollar ustunlik qiladi.

Gender paritet– jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy, ilmiy va ma'rifiy hayotining barcha darajalarida erkaklar va ayollarning teng vakilligi hisoblanadi.

Gender rollar esa, jamiyatda va ma'lum bir tarixiy vaziyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy va madaniy me'yorlarga muvofiq erkaklar va ayollarga belgilangan ijtimoiy rollarni ifodalaydi.

Gender tenglikni ta'minlash masalalarini yoritishda feminizm g'oyasi va global ijtimoiy harkatining shakllanishi, ular tomonidan ilgari surilgan g'oyalarning ijtimoiy ahamiyatini ham ko'rib chiqish maqsadga muvofiq ish bo'ladi.

Xotin-qizlar masalasining ijtimoiy muammo sifatida qaralishi feminizm bilan bog'liqdir. 1779 yili fransuz faylasufi J.Kondorsye "Ayollarga fuqarolik huquqini berish to'g'risida", Olimpiya de Guj esa "Fuqarolik va ayol huquqi" deklaratsiyasi orqali Yevropa, keyinchalik AQSHda ayollarning ijtimoiy va siyosiy huquqlari uchun harakatga asos soldilar. Ushbu davrdan boshlab "feminizm", "feminist" tushunchalari paydo bo'ldi. Aslida, "feminizm" tushunchasi fransuzcha feministe so'zidan olingan. "Femina"– ayol degan ma'noni anglatadi.

Ilmiy adabiyotlarda feminizmning ushbu ontologik genezisi va gnoseologik mohiyati eng avvalo inson huquqlari va erkinliklari kurashi bilan bog'lab talqin qilinadi. XIX asrda yuzaga kelgan turli ijtimoiy-siyosiy harakatlar, inson huquqlari haqidagi qarashlarning keng yoyilishi feminizm uchun asos yaratadi. Shuning uchun XIX asr o'rtalariga kelib ayollar masalasi mavjudligi nafaqat kitoblarda, balki davlatlar siyosatida ham tan olindi... Ayollarning siyosiy harakati ta'sirida XIX asrning 70-yillari va XX asr boshlarida Shimoliy Amerika, Yangi Zillandiya, Avstraliya, Filyandiya, Norvegiya, Shvetsiya, Angliya, Germaniya, Avstriyada liberal qonunlar qabul qilindi va ayollar ichki hayotning ayrim sohaslarida (munitsipalitet saylovida, maktab va litseylarni boshqarishda, gospitallar hayotida va b.) qatnashish imkoniga ega bo'ldilar. XX asrning o'rtalariga kelib esa, ayollar to'la siyosiy huquqqa ega bo'ldilar va ularning siyosiy hayotdagi ishtiroki masalasi Yevropa kengashlari, BMT simpoziumlarida keng muhokama qilinadigan bo'ldi" [1].

Feminizm ayollar, xotin-qizlar hukumronligini ta'minlashga qaratilgan harakat emas. Davlat boshqaruvi tizimida ayollar soni 10-12 foizga yetgan zahoti erkaklarda ham, quyi pog'onalarda xizmat qiluvchi ayol- xizmatchilarda ham hasad, e'tiroz uyg'onadi va mish-mishlar tarqaladi. Bu hol feminizmni teng huquqlilik uchun kurash ekanini jamiyat qabul qilishga tayyor emasligidan dalolat beradi. A.A.Huseynova "feminizm bir jinsning ikkinchi bir jins ustidan hukumronlik qilishga qarshi harakat" [2], deganida to'g'ri qarashni ifoda etadi. Shuningdek, "feminizm – bu faqat ayollardan tashkil topgan monojinli (bir jinsli) harakat emas. Uning tarkibiga demokratik g'oyalari, inson huquqlarini himoya qilishni o'z hayotining mazmuniga aylantirgan barcha insonparvar erkaklar ham kiradi" [3].

"Feminizm insonning biosotsiologik tabiatiga zid keluvchi barcha ijtimoiy hodisalarga, jumladan o'z jinsini almashtirish, lesbiyanka, gomoseksualizm, fohishabozlik (prostitsutsiya), "odam savdosi" kabi noinsoniy voqelikka zid harakatdir"[4]. Keyingi yillarda bunday noinsoniy, insonning biosotsiologik tabiatiga zid hodisalar avj oldi, ommaviy axborot vositalari, hatto ba'zi davlatlar bunga yo'l ochib bermoqda[5]. Eng fojialisi shundaki, bunday holatlarni ayrim xalqaro tashkilotlar ham qo'llab-quvvatlayotgani, ayrim siyosatchilar o'zining befarqligi, mas'uliyatsizligi bilan ularning avj olishiga yo'l ochib berayotganidir[6]. Odam savdosi esa bugun global muammolardan biriga aylangani uchun O'zbekiston Respublikasi unga qarshi kurash olib bermoqda.

Feminizm o'zicha siyosiy nazariyadir. Unga ko'ra, ayollar ijtimoiy-siyosiy borliqni erkaklardan ko'proq o'zgartirish imkoniyatiga ega va texnologiyasini biladilar. Erkaklar qanchalik kuchli, uzoqni ko'zlovchi, mug'ombir, siyosiy o'yinlarga moyil bo'lmasin, ular o'zining ijtimoiy-siyosiy qarashlarini ayollar ta'sirida, goho bevosita ishtirokida yaratadilar. Bundan tashqari,

dadil harakatlari, strategik o'yinlari va "o'jizona talablari" bilan kishilarni o'z ketidan ergashтира oladilar[7].

Feminizm ayollarning o'z huquq va erkinliklari uchun kurashini ifoda etuvchi ijtimoiy harakat bo'lsa, "gender" erkak va ayol o'rtasidagi munosabatlarni nazarda tutuvchi tushunchadir. Ushbu munosabatlar genezisi jamiyat shakllanishining ilk davrlariga borib taqaladi. Shu davrdan beri u aristokratik, monarxistik, feodal-patriarxal, teologik, liberal bosqichlarni bosib o'tdi. Ayolga bo'lgan munosabat jamiyatga, shu jumladan, erkakka bo'lgan munosabatning ko'rinishi sifatida har bir davr uchun dolzarb edi. Chunki xotin-qizlarga bo'lgan munosabatning subyektlari erkaklar edi; ijtimoiy hayotda yetakchi mavqega ega bo'lgan erkaklarning ayollarga munosabati gender ahamiyat kasb etishi tabiiy hol edi[8]. Shuning uchun gender munosabatlarning bosh aktori erkaklar bo'lib kelgan [9].

"Gender falsafasi" quyidagi fundamental ahamiyatga ega fikrlarga tayanadi. Birinchisi, erkak va ayol bir turdagi ikki jinslardir. Ontogenezisi umumiy bo'lsa-da, ularning yon-atrofga, olamga va vazifalariga munosabati har xildir. Ushbu funksional, psixologik tafovutlar erkak va ayolni ikki mavjudotga, subyekt (obyekt)ga aylantiradi. Ikkinchisi, uzoq ijtimoiy-tarixiy rivojlanish jarayonida erkak ovchilik, ayol esa "o'choqni asrash", oilani tebratish, farzandlarni voyaga yetkazish bilan shug'ullanib kelgan, bu ularning hayotiga bo'lgan munosabatlaridagi farqlarni keltirib chiqargan. Uchinchisi, oilaviy vazifalarning differensiallashuvi erkak va ayolning teng huquqli ekanini inkor qilmaydi. Lekin ayol oilani tebratishga moyil ekan, u mazkur vazifasini bajarishni istar ekan, bundan hech qanday diskriminatsiya izlamaslik kerak. Ayolni majburan oiladan tashqariga, ijtimoiy hayotni boshqarishga tortish uning huquqlari va istaklarini mensimaslikdir. V.Alimasovning fikricha, "axir oilaviy vazifalarni, ishlarni ham kimdir bajarishi kerak-ku?!"[10].

O'zbekistonda gender muammosini M.Xolmatova ham o'rganadi. Uning fikricha, "Mehnat turlari va san'atni dastlab ayollar kashf etgan, erkaklar ularni kamolotga yetkazganlar. Shubhasiz, hozirgi zamon sivilizatsiyasining ibtidosida ayol turgan. Hatto, ayollar saltanati davrida farzandlar onalar tomonidan aniqlangan. Ayollar saltanati davridan erkaklar saltanatiga o'tish ayollarning jamiyatda tutgan o'rmini o'zgartirdi, ular jamiyat taraqqiyotidagi ishtirokini rad etib, ularning faoliyatini oila doirasiga tushirdi. Bu davrda ayollar kamsitilgan, oila xo'jaligidagi barcha ishlarni bajarishga mahkum etilgan. Oqibatda, bu davrda ayol o'z qobiliyati va iste'dodini rivojlantirish imkoniyatlaridan mahrum bo'lib, insonga xos va mos hayot kechira olmagan. Shu davrdan boshlab, jamiyat va oilani boshqarish, ularga hukumronlik erkaklar qo'lga o'tdi, ayol esa oila doirasida cheklanib erkak kishiga moddiy va ma'naviy jihatdan qaram bo'lib qoldi"[11].

Mamlakatda gender tenglikni ta'minlash xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning asosiy poydevori bo'lsa, ularning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish esa teng imkoniyatlar makoniga kirish darajasidagi holatdir. Jamiyatda faol bo'lmagan, o'zining haq-huquqlarini bilmagan ayol gender tenglik ta'minlanishining afzalliklarini tushunib yetmaydi. Xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolliги kontekstida gender tenglikni ta'minlash quyidagi vazifalarni amalga oshirishni taqozo etadi:

a) davlat tomonidan xotin-qizlar uchun yaratilayotgan qulay sharoitlar bilan jamiyatdagi mavjud odatlar, ayollar uchun eskidan qolib kelayotgan turli cheklovlar, "yozilmagan qoidalar" muhitida samarali ishlay olish ko'nikmalarini shakllantirish;

b) xotin-qizlarning intellektual va ijodiy yuksalishida ijtimoiy mo'ljallarni to'g'ri anglash va o'zini o'zi uzluksiz rivojlantirish borish rag'batining uyg'unligiga erishish;

c) gender tenglikni ta'minlashda o'zbek xalqi milliy mentalitet xususiyatlarini puxta hisobga olish va dunyoning ilg'or tajribasiga tayangan holda ish tutish;

d) gender tengligiga erishish yo'lida qat'iyatlilik, mas'uliyatlilik, uzviylik va uzluksizlik, tizimlilikka rioya etish, chuqur g'oyaviylik hamda ilmiylikka asoslanish;

e) xotin-qizlar muammolarini kompleks yondashuv asosida bartaraf etish, xususan xotin-qizlarning bandligi, kasbiy-ijodiy, mehnat faoliyatlarini yo'nalishlaridan kelib chiqib, maqsadni amalga oshirish, erkin fikr va mustaqil faoliyat yuritishga erishish, ayol shaxsini, uning huquq va burchlarini hurmat qilish hamda

ularning ilg'or g'oyalari va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash kabi tamoyillar shular jumlasidandir.

Yangi O'zbekiston strategiyasida belgilangan vazifalarni chuqur tahlil qilish gender tenglikni shakllantirish, gender munosabatlarni inson qadri nuqtai naxaridan qayta bahoolash, shuningdek, ayollarni ijtimoiy himoya qilishga yangicha munosabatni yo'lga qo'yish uchun mohiyat e'tiboriga ko'ra butunlay yangi tizimni yaratishga bo'lgan zaruriy ehtiyojni yuzaga keltirdi. Tizimda mavjud bo'lgan kamchiliklar o'rganilib, ularni bartaraf etish choralari ko'rildi. Mavjud tizim kamchiliklarini bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqishda mamlakatimizda boshlangan xalq bilan muloqot siyosati alohida ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, xalq bilan ochiq, yuzma-yuz muloqotni tashkil etish, har bir fuqaroning muammosini aniqlash va ushbu muammolarni manzilli bartaraf etishda eng asosiy omildir [12]. Professor F.Muxitdinovanning fikricha, "hozir biz yashayotgan davr yangilanayotgan O'zbekistonning islohotlarida inson manfaatlarining ustunligiga qaratilgan bir paytda, hali ham oilaviy nizolarning juda katta qismi erkaklar tomonidan ayol huquqlarining tan olinmaslik holatlari shuningdek, ayrim holatlarda jamiyatda ham xotin-qizlarning huquq hamda imkoniyatlariga yetarlicha ahamiyat berilmayotgani haqiqatdir"[13]. Zero, mamlakatimiz aholisining ko'makka ehtiyojmand qatlamlari vakillarini, xususan ayollarni ijtimoiy himoya qilishda yagona maqsad ko'zda tutiladi, ya'ni, ularni ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy qo'llab-quvvatlash orqali ularning

turmush darajasini oshirish, ijtimoiy og'ir ahvoldan chiqarish, kambag'allikni qisqartirishdan iboratdir. Lekin, shunga qaramasdan, xotin-qizlarni ijtimoiy himoya qilishning strategik xususiyatlari ham mavjudki, bu omil mamlakatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida alohida dolzarblik kasb etadi.

Xulosa. Shuningdek, gender tenglikka oid muammolarning ko'pligi jamiyatning ijtimoiy tafakkuriga, ma'rifatliliga, erkak va ayollarning ilm olishga, ta'lim olishlariga munosabatlarga bog'liq bo'ladi. Ya'ni gender tenglikni shakllantirishning ijtimoiy asos jamiyatning ma'rifatliligi, erkak va ayollarning ta'lim olish imkoniyatlari bilan ham o'lchanadi. Zero, qizlarning kasbiy va intellektual ta'limini qo'llab-quvvatlash xotin-qizlarning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etishiga monelik qilishning oldini oladi, chunki o'qimishli, oliy ma'lumotli ayol oilada ham, ishda ham, jamiyat hayotida ham hamma narsaga ilm-ma'rifat bilan, ongli va faol yondashadi va munosib ishtirok etadi.

Jamiyatning yangi taraqqiyot bosqichida gender tenglikni shakllantirish, ayol va erkak munosabatlarida tenglik, maqomlarida muvozanat va huquq va erkinliklari kafolatlanishida adolatlikni ta'minlashning ijtimoiy asoslari jamiyatning ijtimoiy va gender stereotiplariga, ijtimoiy hamioya strategiyasiga hamda e'tiqodi, axloqiy qadriyatlar va boshqa milliy va madaniy xususiyatlariga bog'liq bo'lishi kelib chiqadi. Bu esa mazkur ogmillarni chuqur o'rganish va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini tadqiq etish orqali gender tenglikka erishish imkoniyatini oshiradi.

ADABIYOTLAR

1. Safayeva S. Ayollar masalasi: umumijtimoiy va milliy jihatlar. –Toshkent: O'zbekiston, 2003. –B.34-35.
2. Huseynova A.A. Fuqarolik jamiyati va ayollar. Buxoro: Agro Print, 2009. –B.53
3. Huseynova A.A. Fuqarolik jamiyati va ayollar. Buxoro: Agro Print, 2009. –B.53
4. Huseynova A.A. Fuqarolik jamiyati va ayollar. Buxoro: Agro Print, 2009. –B.53
5. Флинт Л. Секс, ложь и политика. Голая правда. –М.: АСТ Москва, 2006. –С. 26-60.
6. Малерин В. Наташи продаются. –М.: ИНТЕР-ПРЕСС, 2006. –С. 7-18.
7. Брайсон В. Политическая теория феминизма. –М.: Идея-Пресс, 2001. –С.17-24.
8. O'sha asar. –B.8-9.
9. П у ш к а р е в а Н.Л. Что такое феминизм? Женская история. Гендерная история (теория и исследования). Калуга, 2001. – С. 44-46.
10. А л и м а с о в В. Гендер фалсафаси. –Тошкент: Фалсафа ва ҳуқуқ инст. нашр., 2007. –Б.28.
11. Xolmatova M. Gender muammosi va uni O'zbekistonda hal etishning o'ziga xosligi // O'zbekistonda oila, davlat va jamiyat qurilishida ayollarning roli va gender muammolari. –Toshkent: Fan, 1999. –B. 23.
12. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent: O'zbekiston, 2017. – B.44.
13. <https://yuz.uz/news/yangilanayotgan-ozbekistonda-gender-tenglikning-huquqiy-asoslari/> Yangilanayotgan O'zbekistonda gender tenglikning huquqiy asoslari.
14. Xolmatova M.X. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog'lom avlod tarbiyasi. –T: O'zbekistan, 2001.
15. Nasrullayeva X. O'zbekistonda Xotin-qizlar ijtimoiylashuvi jarayonining falsafiy tahlili: Falsafa fan. nomz. ... dis. – Toshkent, 2000. – B.137.